

MAVZU: XITOY MINTAQAVIY ETNIK SIYOSATININING XITOY MODELI.

Mamadaliyeva Muxlisa Alisher qizi

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, magistranti

E-mail: muxlisamamadaliyeva10@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada Xitoy Xalq Respublikasining etnik siyosati va uning amaliy jihatlari yoritilgan. Xitoy modeli etnik guruhlarga teng imkoniyatlar yaratish, ijtimoiy infratuzilma, ta'lismi va sog'liqni saqlash sohalarida qo'llab-quvvatlash bilan bir qatorda, kuchli nazorat mexanizmlari orqali barqarorlikni ta'minlashga qaratilgani ta'kidlanadi. Tibet va boshqa hududlardagi misollar asosida hukumatning kambag'allikni qisqartirish, ta'limga sarmoya kiritish, madaniy dasturlarni rivojlantirish bo'yicha ishlari ko'rsatib o'tilgan. Shu bilan birga, etnik guruhlar ustidan markazlashgan nazoratning inson huquqlari va milliy identitetga ta'siri borasidagi bahslar ham tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Xitoy, etnik siyosat, integratsiya, Tibet, nazorat mexanizmi, ta'lismi, kambag'allikni qisqartirish, inson huquqlari.

Rivojlanish va barqarorlikka erishish bugungi kunda barcha davlat va undagi jamiyatning asosiy maqsadidir. Ammo davlat o'z ichida turli millat guruhlariga bo'lingan va ularning qarashlari har sohada turli bo'lsa, yagona manfaat yo'lida harakat qilish, mamlakat istiqboli uchun kurashish, natijada esa hukumat tomonidan ishlab chiqilgan qonun hamda iqtisodiy, ijtimoiy rivojlanish loyihamonini jamiyatga tadbiq etish murakkablashadi. Mamalakatdagi etmik guruhlarga nisbatan olib boriladigan to'g'ri yondashuvga asoslangan siyosatgina yagona jamiyatni qurishda asos bo'ladi. Etnik xilma-xil davlatlar odatda liberalizm yoki kommunizm g'oyalariga yondashgan holda siyosat olib borishadi. Bu yo'lida davlat etnik ozchilik guruhlarning madaniyatini hurmat qiladi, lekin ularga alohida yordam bermaydi. Ya'ni, davlat hammani teng ko'rsada, alohida siyosat mavjud emas. Etnik guruhlar o'z taraqqiyotini o'zlari hal qiladi.

AQSh, Kanada va Yaponiya kabi davlatlar etnik guruhlarga nisbatan liberal siyosat olib borayotgan bir paytda XXR mamlakatda mavjud 56 ozchilik guruhlariga nisbatan o'z tajribasi va kuchli strategiyasiga asoslangan kommunistik qarashlar aks etib turuvchi siysoat olib bormoqda. Xitoydagi ayrim etnik guruhlar hukumatga qarshi bo'lsada, u olib borayotgan yondashuv asrlar davomida mustahkamlanib bormoqda. Buning sababi XXR ozchilik hududida infratuzilma, iqtisodiyotni qayta qurish,

ijtimoiy rivojlanish, aholiga madaniy xizmat ko'rsatishni yaxshilash va boshlang'ich tashkilotlarni qurish kabi ko'plab turli sohalarga sarmoya kiritdi.¹

Xitoy andozasidagi etnik siyosat rivojlanishni qo'llab-quvvatlash, ozchilik manfaatini himoya qilish va nazorat mexanizmlarini saqlashga qaratilgan maxsus dastur hisoblanadi. Shu doirada, Xitoy hukumati ozchilik millat vakillariga ta'lim, sog'liqni saqlash, ish bilan ta'minlash va infratuzilmani rivojlantirishda alohida imtiyozlar beradi. Ularning an'ana va urf-odatlarini saqlash uchun madaniy dasturlar qo'llab-quvvatlanadi, hududiy avtonomiya orqali o'zini o'zi boshqarish imkoniyatlari kengaytiriladi. Misol tariqasida XXR hukumatining ozchilik aholisi istiqomat qiluvchi Xuangxi avtonom hududidagi Maonan viloyatida kambag'allikni qisqartirish bo'yicha 2012-yildan beri harakat qilmoqda. Amalga oshirilgan loyihalar tufayli 2012-yilda kambag'al aholining soni 98 million bo'lsa, 2019-yil oxiriga kelib bu raqam 5,5 millionga tushgan. Hududdagi kambag'al tumanlar soni ham 832 tadan 52 tagacha kamaygan.² Aholi o'z yashash sharoiti, unga berilgan imkoniyatlari kengligi, tenglik va hukumatga nisbatan hurmat tuyg'usini his qilgandagina norozilik namoyishlarini targ'ib qilmaydi. Buni anglagan XXR hukumati ham tub aholi Xanlar va Xan bo'lman ozchilikka birdek imkoniyat yaratishga harakat qiladi. Ta'lim sohasida ham hukumat barchaning birdek boshlang'ich ta'lim olishini kafolatlaydi. Birgina Tibetda 2012-yildan 2021-yilgacha markaziy hukumat ta'lim sohasiga qariyb 215 milliard yuan (32 milliard AQSH dollarri) sarmoya kirtgan. 2012-yildan boshlab Tibetda bolalarga bog'chadan to o'rta maktabgacha bo'lgan 15 yillik bepul davlat ta'lim tizimi joriy etilgan. Natijada esa oliy ma'lumotga ega bo'lganlar soni ham keskin oshgan. Masalan, 2010-yilda har 100,000 kishiga 5,507 nafar kollej bitiruvchisi to'g'ri kelgan bo'lsa, 2020-yilga kelib bu raqam 11,019 kishiga yetdi.³

Bu kabi ko'rsatkichlar Tibetda nafaqat ta'lim tizimining jadal rivojlanayotganini, balki hukumatning etnik ozchiliklarga nisbatan ijobiy siyosatini ham yaqqol namoyon etadi. Yoshlarning ta'limga bo'lgan kengroq imkoniyatlari ularning kasbiy malaka va mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini oshiradi. Umuman olganda, XXR hukumatining bu boradagi yondashuvi, ya'ni, bir tomonidan teng imkoniyatlari yaratish, boshqa tomonidan esa etnik o'ziga xoslikni muhofaza qilish Xitoy modelining asosiy xususiyatlaridan biridir.

Xitoy modelidagi etnik guruhlar ustidan nazorat mexanizmi nafaqat ijtimoiy va siyosiy barqarorlikni saqlash, balki millatlararo totuvlikni, diniy va madaniy xilmallilikni himoya qilish, iqtisodiy imkoniyatlarni teng taqsimlash va mamlakat hududida bo'lishi mumkin bo'lgan terrorizm va ekstremizmning oldini olishga qaratilgan. Bu

¹ Supporting the development of ethnic groups with smaller populations: the policies and practices of the Chinese government, <https://ijae.springeropen.com/articles/10.1186/s41257-023-00098-9>

² Vocational schools set to aid poverty alleviation, <https://english.www.gov.cn/news/topnews/202005/25/>

³ Better education being provided for China's ethnic groups., <https://english.www.gov.cn/news/topnews/202207/04/>

nazorat mexanizmi Xitoyning ko‘p millatli jamiyatida muvaffaqiyatli integratsiya va rivojlanish uchun zarur bo‘lib, davlatning ichki va tashqi siyosatidagi asosiy ustuvor yo‘nalishlardan birdir. Xitoy Kommunistik partiyasi hukumat byurokratiyasini, jumladan, harbiy, politsiya va sud tizimini nazorat qiladi. Shuningdek, u ozchilik jamiyati va unga tegishli ko‘plab jabhalarni, jumladan, ommaviy axborot vositalari, internet va akademik doiralarni qattiq nazorat qiladi. Inson huquqlari, jumladan, so‘z, uyushmalar, yig‘ilishlar va din erkinligi huquqlari deyarli cheklangan bo‘lib, hukumat, korruptsiyaga qarshi chiqqanlardan tortib, atrof-muhit degradatsiyasiga qarshi norozilik bildiruvchilargacha hibsga olish, qyinoqqa solish va qamoqqa olish bilan jazolaydi.⁴ 1978-yilda V Butunxitoy xalq vakillari yig‘ilishining birinchi sessiyasida tashkil etilgan Davlat etnik ishlari komissiyasi barcha etnik masalar, ozchilik aholining huquqlari, mintaqaviy milliy avtonomiya tizimlarining amalga oshirilishini va etnik guruahlarning xulq-atvorini kuchli nazorat qiladi.⁵ Etnik ishlar bo‘yicha komissiyaning nazorat tizimi keng qamrovli bo‘lib, turli sohalarni, jumladan, ilm-fan, ta’lim, inson huquqlari, iqtisodiyot, diniy ishlar va avtonomiya kabi muhim yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi.

Ushbu tizimning samarali ishlashi uchun Komissiya 8 ta asosiy bo‘lim, Bosh boshqarma, Siyosat va huquq departamenti, Iqtisodiy rivojlanish departamenti, Madaniyat va targ’ibot bo‘limi, Ta’lim bo‘limi, Xalqaro aloqalar bo‘limi, Moliya va menejment bo‘limi, Inson resurslari bo‘limiga bo‘lingan.⁶ Ularning har biri alohida vazifalarni bajaradi, shu bilan birga etnik masalalar bo‘yicha umumiyligi va muvofiqlashtirilgan yondashuvni ta’minlaydi. Ammo komissiya va uning bo‘limlari tomonidan amalga oshirilayotgan ozchilik ustidan nazoratni saqlash orqali jamiyat tinchligi va barqarorligiga erishish siyosati ostida tazyiq va kuch ishlatish holatlari ayniqlsa kuchli muhokamalarga sabab bo‘lmoqda.

Xitoyning etnik siyosati — bir tomonidan iqtisodiy yuksalish va ijtimoiy xizmatlar orqali integratsiyani rag’batlantiruvchi, boshqa tomonidan esa xavfsizlik va siyosiy barqarorlik niqobi ostida markazlashgan nazorat va assimilyatsiya siyosatini amalga oshiruvchi yondashuvdir. Bu modelning samaradorligi mavjud bo‘lsa-da, u inson huquqlari va milliy identitetni saqlab qolish nuqtai nazaridan jiddiy bahsmunozaralarga sabab bo‘lmoqda.

⁴ Human Rights in China, <https://www.hrw.org/report/2019/05/01/chinas-algorithms-repression/reverse-engineering-xinjiang-police-mass>

⁵ State Ethnic Affairs Commission, http://english.www.gov.cn/state_council/2014/08/23/content_2814749_83035926.htm

⁶ State Ethnic Affairs Commission, <http://hrlibrary.umn.edu/research/seac.html>